



**CHDPU**  
CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM,  
FAN VA INOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
GUMANITAR FANLAR FAKULTETI  
FAKULTETLARARO IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASII

# FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

## MATERIALLARI



23-24-aprel, 2025



**“FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK”**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**TASHKILIY QO'MITASI**

**Tashkiliy qo'mita raisi:**

**G'.I. Muxamedov**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

**Tashkiliy qo'mita a'zolari:**

**B.X. Eshchanov**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.

**S.B. Qorayev**

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor.

**D.B. Axmadjanov**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

**O.A. Ortiqov**

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor.

**S.X. Gayupova**

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i.

**R.A. Ikramov**

Gumanitar fanlar fakulteti dekani.

**L.K. Axatov**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri.

**Tashkiliy qo'mita ishchi guruhi:**

**Madalimov T.A.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

**Jo'rayev H.A.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

**Koshanova N.M.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

**Tashmetov T.X.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

**Karshiyev Sh.S.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

**Neshitov P.Yu.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

**Xaytmetov R.K.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

**Muhammadiyev L.G.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

**Nafasov A.K.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

**Eronov S.Q.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

**Saidusmanov B.A.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

**Usmanov A.X.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Sunnatov T.R.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Tuganova L.Dj.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Toshtemirov R.A.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Ilmurodova f.Sh.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Yo'ldoshev U.X.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Abdullayeva D.N.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Sa'dullayeva M.X.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Xolmo'minov G.B.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Miraxmedova Sh.N.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Yakubov X.M.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Imomova U.I.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Tadjibayeva R.O.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Umarova Sh.B.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Yursinboyev J.M.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Nurmanov Sh.J.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Abdullayev T.S.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Maxkamov D.Sh.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Ilyosov Sh.B.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Burliyev U.K.**

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

## **YOSHLARDA MILLIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATIDAGI FAOLIYAT (ijtimoiy-falsafiy tahlil)**

**Kurbonov Xurshidbek,**  
Alfraganus universiteti tadqiqotchisi  
g-mail: pozilovich.uz@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

Madaniyat xalqimiz tomonidan kashf etilib, ko'xna tariximiz qaridan barq urib kelayotgan o'ziga xos xususiyatlardan biri. Xalqimizning izlanuvchanlik, qiziqish, yaratuvchanlik, mehnatsevarlik, aql-shijoati natijasi sifatida yuksak madaniy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan bebaho badiiy, tasviriy, amaliy, me'moriy san'at asarlari va yodgorliklari, xalq qo'shiqlari, raqslari, sport o'yinlari va turlarini yaratilib, avloddan-avlodga o'tib, boyib kelayotganiga tarix guvoh. Maqolada ushbu masalalarning ijtimoiy-falsafiy tahlili bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, madaniyat, estrada, musiqiy ta'lim, madaniy markaz, kinematografiya, tasviriy san'at, iste'dod.

## **ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ, НАПРАВЛЕННАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ (социально-философский анализ)**

### **АННОТАЦИЯ**

Культура — одна из уникальных особенностей, которую открыл для себя наш народ и которую он ценит с древних времен. История свидетельствует о том, что в результате пытливости, любознательности, творчества, трудолюбия и интеллекта нашего народа были созданы, переданы из поколения в поколение и становятся все богаче бесценные произведения искусства и памятники, народные песни, танцы, спортивные игры и формы, являющиеся неотъемлемой частью нашего высокого культурного наследия. В статье представлен социально-философский анализ этих проблем.

**Ключевые слова:** молодежь, культура, эстрада, музыкальное образование, культурный центр, кинематография, изобразительное искусство, талант.

## STATE POLICY ACTIVITIES AIMED AT THE FORMATION OF NATIONAL CULTURE IN YOUTH (social and philosophical analysis)

### ABSTRACT

Culture is one of the unique features that our people have discovered and valued since ancient times. History shows that as a result of inquisitiveness, curiosity, creativity, hard work and intelligence of our people, priceless works of art and monuments, folk songs, dances, sports games and forms, which are an integral part of our high cultural heritage, have been created, passed on from generation to generation and are becoming richer. The article presents a socio-philosophical analysis of these problems.

**Keys words:** youth, culture, pop music, music education, cultural center, cinematography, fine arts, talent.

### KIRISH.

Respublikada yoshlarni madaniyat va sport sohasida iqtidorlarini namoyon etishlari, barkamol shaxs sifatida kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Konstitutsiya asosida, – “har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi”[1].

Ta'kidlash joizki, madaniyat hamda sport masalalari ko'lamining kengligi, dolzarbligi, zamon talablari va aholi e'tiyojlarining ortib borishi, shuningdek ularning har biriga tarixiy mas'uliyat bilan yondoshish zarurati ushbu sohalardagi boshqaruvni isloh qilish zaruratini keltirib chiqardi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ishini bajarish davomida ilmiylik, mantiqiylik, analiz va sintez kabi usullardan foydalanildi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** X.Pulatov, D.Yusubov, A.Eshamonov, Z.Kadirova, D.Raximova, M.Melikova, T.Ismoilov kabi olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda qishloq sharoitida tabiatni muhofaza qilish madaniyati, ekologik ongni shakllantirish, yosh kadrlarni madaniy dunyoqarashini o'stirish masalalari, yoshlar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlili amalga oshirilgan.

### Tahlil va natijalar.

“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil[2] etildi. Bunday islohotlar



madaniyat va sport sohasida davlat siyosatining innovatsion yondoshuvining mahsuli bo'lib, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda hamda jismonan sog'lom bo'lib tarbiyalanishida, har ikki sohada ularning iste'dodlarini namoyon etishlariga, xalq madaniyati va sportni dunyo miqyosida targ'ib etishga imkoniyat yaratdi.

Farmonga binoan, «O'zbeknavo» estrada birlashmasi va «O'zbekraqs» milliy raqs birlashmasi negizida Madaniyat vazirligi huzurida «O'zbekkonsert» davlat muassasasi tashkil etilgan. Ushbu muassasa o'zida 2,5 ming ijodiy jamoa va ijrochilarni birlashtirdi. Bu esa o'z navbatida san'atning musiqa, estrada, xoreografiya yo'nalishlarini yanada rivojlantirish O'zbekiston xalqining ma'naviyati, yorqin va o'ziga xos madaniyatini yorituvchi yuksak badiiy va sifatli asarlar yaratishga har tomonlama ko'maklashish imkonini beradi[2].

2017-yilda mamlakatimizda 39 teatr, 175 muzey, mingdan ziyod aholi dam olish va madaniyat markazlari, istirohat bog'lari, 301 bolalar musiqa va san'at maktabi, 296 bolalar va o'smirlar hamda respublika darajasidagi sport maktabi, 51 mingga yaqin sport majmuasi, stadionlar va inshootlar faoliyati ta'minlandi, 2,7 milliondan ortiq bola sport, musiqa va san'at bilan muntazam shug'ullanishiga sharoit yaratildi[2].

Musiqiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligiga qarashli R.Glier va V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan akademik musiqa litseylari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi, 301 bolalar musiqa va san'at maktabi Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkazildi. Madaniy-ommaviy tadbirlarni yuqori darajada o'tkazishni kengaytirish maqsadida «Istiqlol» va «Turkiston» san'at saroylari Toshkent shahar hokimiyati ixtiyoridan Madaniyat vazirligi tasarrufiga o'tkazildi[2].

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i mustaqillik yillarida xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan tobora chiroy ochib bormoqda. Qayd etish lozimki, 1991-yili Milliy bog' hududida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning muazzam haykali barpo etilib, o'tgan davr mobaynida ulug' ajdodimiz tarannum etgan yuksak gumanistik g'oyalarga hamohang ravishda, aniq me'moriy reja asosida keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Ushbu hududda 2007-yili O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor, 2010-yili O'zbekiston xalq yozuvchisi Oybek, 2013-yili O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad va taniqli shoira Saida Zunnunova xotiralariga bag'ishlab yodgorlik majmualari o'rnatildi. Ma'naviy hayotimizda o'chmas iz qoldirgan atoqli so'z san'atkorlarining tarixiy xotirasini abadiylashtirish maqsadida O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo[3] etildi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi va do'stlik jamiyatlarining Markaz negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo

munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyat yuritdi. Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 milliy madaniy markaz, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 do'stlik jamiyati faoliyati O'zbekistondagi barcha millatlar va elatlarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, an'ana hamda urf-odatlarini asrash va har tomonlama rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim o'rin tutadi[4].

Yoshlarni iqtidorini namoyon etishida tasviriy san'atning o'rni beqiyos. Ushbu sohani rivojlantirishda "ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 23-yanvarda imzolangan «O'zbekiston Badiiy akademiyasini tashkil etish haqida»gi [Farmoni](#), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martda qabul qilingan shu yo'nalishdagi [qarori](#) muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur tarixiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalar asosida Badiiy akademiya tomonidan o'tgan yigirma yil mobaynida tasviriy san'at sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, rassomlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning huquqlarini himoya qilish, moddiy va ma'naviy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, yosh rassomlarni tarbiyalash borasida ko'p ishlar qilindi. Badiiy akademiya tarkibida tasviriy san'at sohasi bo'yicha milliy ta'limning ko'p bosqichli tizimi shakllantirilgani, «San'at» jurnali tashkil etilib, u 1998-yildan buyon uch tilda – o'zbek, rus, ingliz tillarida chop etilayotgani, boy badiiy merosimiz va zamonaviy tasviriy san'atimizning rivojlanish tendensiyalarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning moddiy, ilmiy-uslubiy bazasi mustahkamlanganini ta'kidlash lozim[5].

Madaniyat sohasini rivojlantirish, yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun ta'lim muassasalarini tashkil etish, ularni moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida ijobiy islohotlar amalga oshirildi. "Ayni shu maqsadda 2002-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Toshkent davlat konservatoriyasi uchun yangi bino qurilib, u zamonaviy talablar asosida jihozlandi. Ushbu oliy o'quv yurtining nufuzi va maqomini oshirish uchun unga «O'zbekiston davlat konservatoriyasi» nomi berildi, konservatoriya qoshida iqtidorli yoshlar uchun akademik musiqa litseyi ham tashkil etildi[6].

Mustaqillik yillarida milliy kinematografiya rivojiga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan katta e'tibor natijasida sohada muayyan yutuqlarga erishildi. Mazmun va shakl jihatidan rang-barang kino asarlar yaratilib, ular tomoshabinlar e'tiborini qozondi. Prezidentning "Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida xalqimiz, avvalo, yoshlar ongiga milliy istiqloq g'oyalariga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirishda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan kino san'atining

rolini oshirish, "O'zbekkino" Milliy agentligining faoliyatini takomillashtirish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan.

Prezidentning "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida xalqimiz, xususan, yoshlarimizning dunyoqarashi, ma'naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda g'oyat muhim o'rin va ahamiyatga ega bo'lgan musiqa san'atini har tomonlama rivojlantirish, boy musiqiy merosimizni chuqur o'rganish, yosh avlodni milliy va jahon musiqa san'atining mumtoz namunalariga muhabbat ruhida tarbiyalash, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida muhim vazifalar belgilandi[7].

Tasviriy san'at asrlar osha salqallanib, yoshlarga tariximizdan saboq berishda, tasavvurlarini kengayishida, xalqimiz ma'naviyatini yuksaklikka ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda yoshlarni zamonaviy tasviriy san'at sohasiga qiziqishi, o'zlashtirishi va o'zlarining ijod namunalarini kashf etib, iste'dodlarini namoyon etishlari bu sohaga e'tiborning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Prezidentning PQ-3219-son qarori asosida O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirish bo'yicha 2017–2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi va mazkur dasturni amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Ijodkorlarni har tomonlama moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, iste'dodli yoshlarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, rassomlik va dizayn san'ati sohasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, xalqimizning tasviriy va amaliy san'at sohasidagi badiiy merosini asrash va keyingi avlodlarga yetkazish, yurtdoshlarimizning tasviriy va amaliy san'at sohasidagi estetik ehtiyoj va talablarini qanoatlantirishda bu hujjat keng imkoniyatlar yaratib beradi[8].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

**Xulosa va tarliflar.** Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniyat durdonalari namunalaridan baxramand qilish, milliy musiqiy merosimizni ongiga singdirish orqali uning vorislariga aylashtirish, madaniyat sohasida yoshlar orasidan yetuk mutaxassislar, san'at fidoyilarini yetishtirish maqsadida islohotlar olib borildi.

Bag'rikenglik, insonparvarlika xalqimizning qon-qoniga singib ketgan o'ziga xos xususiyatlardan hisoblanib, mustaqillik davrida bu hususiyat davlatning innovatsion siyosatida ham o'z ifodasini topdi. Davlatning innovatsion siyosati ko'p millatli O'zbekiston xalqi vakillarini fidokorona mehnatlari va intellektual salohiyati bilan iqtisodiy tarmoqlar va ijtimoiy sohaning barcha yo'nalishlarini rivojlantirishga o'zlarining munosib hissasini qo'shib, bir oila bo'lib yashashga imkoniyat yaratdi.

Mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoni berildi.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Янги тахрирда. –Тошкент: Ўзбекистон. 2023. –Б. 13.
2. Маданият ва спорт соҳасида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 15.02.2017 йилдаги ПФ-4956-сон. /Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.04.2021 й., 06/21/6218/0398-сон.
3. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий боғи ҳудудида Адиблар хиёбонини барпо этиш тўғрисида. 18.04.2017 йилдаги ПҚ-2894-сон. /“Халқ сўзи” газетасининг 2017 йил 19 апрелдаги 77 (6771)-сон.
4. Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 19.05.2017 йилдаги ПФ-5046-сон. /“Халқ сўзи” газетасининг 2017 йил 23 майдаги 101 (6795)-сони.
5. Ўзбекистон бадиий академияси фаолиятини ривожлантириш ва янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 16.08.2017 йилдаги ПҚ-3219-сон. /“Халқ сўзи” газетасининг 2017 йил 17 августдаги 162 (6856)-сон.
6. Ўзбекистон давлат консерваторияси фаолиятини янада ривожлантириш ва такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 08.08.2017 йилдаги ПҚ-3178-сон. /Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 03.02.2022 й., 07/22/112/0099-сон.
7. Миллий кинематографияни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. 07.08.2017 йилдаги ПҚ-3176-сон. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.09.2017 й., 07/17/3292/0029-сон; 08.04.2021 й., 06/21/6202/0342-сон.
8. Ўзбекистон бадиий академияси фаолиятини ривожлантириш ва янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 16.08.2017 йилдаги ПҚ-3219-сон. /“Халқ сўзи” газетасининг 2017 йил 17 августдаги 162 (6856)-сон.



|                                                                                                                                                                                                                                                        |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523231">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523231</a>                                                                                                                                                          |     |
| 80. GLOBALLASHUV SHAROITIDA TASAVVUFNING DINIY AXLOQIY QADRIYAT SIFATIDAGI O'RNI Ahmad Muhammadiyevich Jo'rayev<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523249">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523249</a>                                       | 486 |
| 81. A. S. Usmonov 16-YUZYILLIK BOSHLARIDA TURON VA ERON O'RTASIDA DINIY ZIDDIYATLARNING KUCHAYISHI<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523261">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523261</a>                                                    | 491 |
| 82. I. D Abdullayeva MIGRATSIYA RAQOBATBARDOSHLIK VA IMKONIYATLAR<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523276">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523276</a>                                                                                     | 497 |
| 83. Madraximov A. A SUN'IY INTELEKTNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O'RNI VA BOSHQA SOHALARDA QO'LLANILISHI<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523288">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523288</a>                                                 | 501 |
| 84. U. I. Imamova YANGILANAYOTGAN JAMIYATDA TALABA YOSHLARNING FUQAROLIK POZITSİYALARINI YAXSHILASHNING DOLZARBLIGI<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523292">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523292</a>                                   | 507 |
| 85. Sh. N Miraxmedova XORIJIY DAVLATLARDA MEDIA TA'LIMNI O'RGANISH VA ILMIYNAZARIY TAHLILI<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523298">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523298</a>                                                            | 513 |
| 86. Nurmatov B. A SAYFIDDIN QUTUZ MEROSINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI VA VATANPARVARLIK QADRIYATLARI TIZIMIDA TUTGAN O'RNI<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523311">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523311</a>                            | 519 |
| 87. H. M Yakubov ODAM SAVDOSI - ASR MUAMMOSI<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523319">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523319</a>                                                                                                          | 523 |
| 88. B. A Saidusmanov O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASINING RIVOJLANISHI (1945-1990 yillar Toshkent viloyati misolida)<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523328">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523328</a>                                    | 527 |
| 89. Jo'rayev M. X SOMONIYLAR DAVRIDA IJTIMOY-MADANIY MUHIT VA DINGA MUNOSABAT<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523339">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523339</a>                                                                         | 531 |
| 90. H. M Yakubov UMMAVIYLAR DAVRIDA QOZILIK TIZIMINING RIVOJI<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523345">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523345</a>                                                                                         | 538 |
| 91. Z. N Xaydarova O'QUVCHILARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARINI RAQAMLI VOSITALAR YORDAMIDA O'RGATISH - RAQAMLI SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH MEZONIDIR.<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523353">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523353</a> | 542 |
| 92. Жўраев Х. А ДОВРУЛ ҲИКМА ВА МАОРИФ ТАРИХИ<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523368">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523368</a>                                                                                                         | 547 |
| 93. Z. Shamsidinov 13–14-YUZYILLIKLAR O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI FORS TILLI MANBALARIDA TURONDA TA'LIM TIZIMI<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523376">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523376</a>                                        | 551 |
| 94. Ш. О Мадаева ИДЕНТИКЛИК ТАНАЗЗУЛИ ДАВРИДА ФАЛСАФИЙ ТАФАККУР ВА ЭЪТИҚОДНИНГ ЎРНИ<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523382">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523382</a>                                                                   | 555 |
| 95. Kurbonov X YOSHLARDA MILLIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATIDAGI FAOLIYAT (ijtimoiy-falsafiy tahlil)<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523400">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523400</a>                       | 561 |
| 96. Ш. Б Умарова НОВЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В XXI ВЕКЕ<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523410">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523410</a>                                                                                               | 566 |
| 97. N. Axatov AMIR NASRULLOH VA BOSH QUSHBEGI MUHAMMAD HAKIMBIY MAKTUBLARIDA MANG'ITLAR SULOLASI DAVRI TA'LIM TIZIMIGA OID MA'LUMOTLAR<br><a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.15523419">https://doi.org/10.5281/zenodo.15523419</a>                | 570 |
| 98. А. Э Юлдашев МИЛЛАТЛАРАРО ДЎСТЛИК ВА ДИНЛАРАРО БАҒРИКЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ УСТУВОР                                                                                                                                                 | 577 |